


TOSHKENT SHAHAR STATISTIKA BOSHQARMASI

Yanvar-oktyabr 2018 yil

Chakana savdo tovar aylanmasi joriy yilning yanvar-oktyabr oyida o'tgan yilning shu davriga nisbatan 6,1 % o'sdi.

Yirik korxonalarining chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 23,9 foizni tashkil etdi va o'sish sur'ati o'tgan yilning shu davriga nisbatan 14,4 % ga o'sdi.


2018 yil yanvar-oktyabr oylarida ovqatlanish tashkilotlarini qo'shgan holda, chakana savdo tovar aylanmasi va o'sish sur'atlari (o'tgan yilning shu davriga nisbatan, %da)



Ovqatlanish tashkilotlarining chakana tovar aylanmasi hajmi 1189,7 mlrd. so'mni tashkil etdi va 100,2 % ga o'sdi. Chakana savdo tovar aylanmasining umumiy hajmida ovqatlanish korxonalarining ulushi 5,0% ni tashkil etdi


Umumiy ovqatlanish tashkilotlari savdo aylanmasi umumiy hajmida eng katta ulush Yunusobod tumani 20,0 %, Sergeli 11,7%, Mirzo-Ulug'bek 11,3%, tashkil etgan bo'lsa, Bektemir tumani 0,8 %, Uchtepa tumani 5,0% va Yashnobod tumani 6,2 % ulush bilan eng past ko'rsatkichni qayd etdi.

Tumanlarning umumiy ovqatlanishdagi ulushi



Chakana savdo tovar aylanmasi hajmida katta ulushga ega bo'lgan Chilonzor (17,0 foiz), Uchtepa (13,1 foiz), Shayxontoxur tumani (12,2 foiz), Bektemir (12,0 foiz), va Yunusobod (11,1 foiz) tumanlari chakana savdo tovar aylanmasining o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

Hududlar kesimida jami chakana savdo tovar aylanmasining ulushi, foizda




Ovqatlanish tashkilotlarini qo'shgan holda, chakana savdo tovar aylanmasi aholi jon boshiga 9,5 mln. so'mni tashkil etdi. O'rtacha jon boshiga tovar aylanmasining eng yuqori ko'rsatkichlari Bektemir tumani (85,1 mln. so'm) , hilonzor tumani (16,7 mln. so'm), Uchtepa (11,7 mln. so'm), Yakkasaroy tumani (11,8 mln. so'm) Mirobod tumani (10,4 mln. so'm) kuzatildi.



Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi

| | Ming. so'm | o'tgan yilning shu davriga nisbatan, foizda |
|------------------------|---------------|---|
| Toshkent shahri | 9572,1 | 104,3 |
| tumanlar: | | |
| Uchtepa | 11 787,9 | 102,0 |
| Bektemir | 85 160,1 | 100,0 |
| Yunusobod | 8 043,5 | 107,1 |
| Mirzo Ulug'bek | 5 124,1 | 105,0 |
| Mirobod | 10 482,6 | 105,1 |
| Shayxontoxur | 8 729,7 | 89,4 |
| Olmazor | 2 687,6 | 99,8 |
| Sergeli | 8 274,2 | 105,6 |
| Yakkasaroy | 11 821,8 | 113,6 |
| Yashnabod | 7 029,6 | 107,8 |
| Chilonzor | 16 791,6 | 116,5 |

Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi




Kichik tadbirkorlikning tovar aylanmasi o'tgan yilning shu davriga nisbatan 3,7 foizga oshdi.

Kichik tadbirkorlik umumiy tovar aylanmasining 3811,4 mlrd. so'mi uyushmagan savdo hisobiga to'g'ri keldi. Ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 16,0 foizni tashkil etdi.



kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi




Ovqatlanish tashkilotlarini qo'shgan holda, chakana savdo tovar aylanmasi katta ulushga ega bo'lgan mikrofirmalar quydagi tumanlarning o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda: Shayxontoxur tumani (14,7 foiz), Olmazor tumani (13,3 foiz), Chilonzor tumani (12,2 foiz), Uchtepa tumani (11,3 foiz).

Ovqatlanish tashkilotlarini qo'shgan holda, chakana savdo tovar aylanmasi katta ulushga ega bo'lgan kichik korxonalar quydagi tumanlarning o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda: Yunusobod tumani (16,2 foiz), Mirobod tumani (13,4 foiz) Shayxontoxur tumani (10,3 foiz).


2018 yil yanvar-oktyabr oylarida ulgurji savdo

2018 yil yanvar-oktyabr oylarida ulgurji tovar aylanmasi hajmi 19528,4 mlrd. so'mni yoki 2017 yilning shu davriga nisbatan 100,8 % ni tashkil qildi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning ulgurji savdo tovar aylanmasi 1,5 % ga oshdi va 15562,6 mlrd. so'mga yetib, umumiy ulgurji savdo tovar aylanmasidagi ulushi 79,7 % ni tashkil qildi.





Kichik korxonalar va mikrofirmalarning ulgurji savdodagi ulushi (foizda)



Ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmida katta ulishga ega bo'lgan Mirzo-Ulug'bek tumani 17,1 %, Yakkasaroy tumani 16,1 %, Yunusobod tumani 11,5 %, ni tashkil etgan bo'lsa, Bektemir tumani 1,3 % Uchtepa tumani 4,8 % ulush bilan eng past ko'rsatkichni qayt etdi.

Ulgurji savdo tovar aylanmasi ulushi



kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi

